

**KORXONALARING KREDITGA LAYOQATLIGI TAHLILINING SKORING MODELI VA
UNING AXBOROT TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11633465>

Maxamadiyev Alimardon Chariyarovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistri

Annatatsiya: Maqolada korxonalarining kreditga layoqatligini tahlil qilish scoring modeli hamda bir qancha rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Kichik biznes subektlarining tahlil asosida sinflarga ajratish va qiyosiy tahlil asosida tartibga solish va uni qo'llab quvvatlash, unga ko'ra kichik biznes subyektlarini bazalar asosida tartiga solish takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes subektlari, scoring, sinf, layoqat, bank, tijorat bank, kredit tarixi, mikroqarz.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyoti asosidir. Ayniqsa, keyingi yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida keng islohotlarning amalga oshirilishi kelgusida barqaror rivojlanishga zamin yaratib bermoqda. Iqtisodiyotimiz "lokomotivi" bo'lgan bank tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qonun, qaror va farmonlarning qabul qilinishi ushbu sohaning zamon bilan hamnafas rivojlanishini ta'minlab bermoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martda "Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 6-bandi "v" kichik bandida "potensial qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini baholash hamda jismoniy shaxslarga va kichik tadbirkorlik subyektlariga kreditlar (mikroqarzlar) ajratish muddatlarini qisqartirish imkonini beruvchi tijorat banklari tomonidan o'z scoring modelini yaratish...[1]" va ularni amaliyatga joriy etish vazifasi ko'rsatib o'tilgan.

Korxonalarining kreditga layoqatliliği tahlili, baholash usullari, zaruriyati, mezonlari hamda unga qo'yiladigan talablar Moliyaviy tahlil (Ionova va Selezneva, 2006)[2], Kompaniya va tashkilotlarning kreditga layoqatliliği tahlili (Yendovitskiy va boshq., 2016)[3], Qarz oluvchining kreditga layoqatliliginı baholash (Naumchenkova, 2016)[4], Korxonalarining moliyaviy tahlili (Liferenko, 2005)[5], Bank ishi (Abdullahayeva, 2017)[6], Bank ishi (Azizov va boshq., 2016)[7], Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatini tahlili (Raximov, 2015)[8], O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliliginı baholash amaliyotini takomillashtirish (Mamatov va boshq., 2016)[9] kabi adabiyotlarda yoritib berilgan.

Bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarida korxonalarining kreditga layoqatliliği tahlili va uni baholashda turli xil usullardan foydalanib kelinmoqda. Ta'kidlash joizki, banklar amaliyotida korxonalarining kreditga layoqatliliginı tahlil qilish va baholashda uch

turdagi: qoplash, likvidlilik va muxtorlik koeffitsiyentlaridan foydalanilmoqda. Ushbu koeffitsiyentlar asosida korxonalarning kreditga layoqatliligi uchta sinfga ajratish asosida baholanmoqda (1-jadval).

1-jadval

Banklar tomonidan qo'llanilayotgan kreditga layoqatlilikni baholash mezonlari

| Ko'rsatkichlar | I sinf | II sinf | III sinf |
|--------------------------|-------------|--------------------|-------------|
| 1. Qoplash koef.(Qk) | $Qk > 2$ | $2 > Qk > 1$ | $1 > Qk$ |
| 2.Likvidlilik koef. (Lk) | $Lk > 1,5$ | $1,5 > Lk > 1$ | $1 > Lk$ |
| 3. Muxtorlik koef. (Mk) | $Mk > 60\%$ | $60\% > Mk > 30\%$ | $30\% > Mk$ |

Ushbu tartibdagagi kreditga layoqatlilikni baholash mezonlarida quyidagi bartaraf etiladigan kamchiliklar hamda takomillashtirilishi talab etiladigan umumiy jihatlar mavjud:

- koeffitsiyentlarni hisoblash usulidagi kamchiliklar;

- ushbu koeffitsiyentlar asosida korxonaning moliyaviy ahvolini to'liq baholash imkoniy yo'qligi;

- xalqaro tajribalar e'tiborga olinmaganligi.

Xalqaro tajribalardan ko'rish mumkinki, banklar faoliyatida qo'llaniladigan turli kredit skoring modellari mijozning kreditga layoqatlilikini aniq va keng ko'lamma baholash imkonini beradigan zamonaviy usullardan biridir. Buning yordamida eng maqbul mijoz tanlab olinadi hamda kredit riskini sezilarli pasaytirishga erishiladi. Demak, kreditning qaytmasligi bilan bog'liq yo'qotishlarni oldi olinadi. Kreditga layoqatlilikni aniq, to'liq va tezkor baholash nafaqat banklar uchun kredit riskini pasaytirish balki, korxonalar uchun kreditni qaytara olmaslik riskini qisqartirishga tayinlanganligi bilan ham ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash kerakki, banklar amaliyotida kredit skoring modelidan foydalanish, ham bank uchun, ham korxona uchun kutilgan samarani beradi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida eng maqbul mijozlarni aniqlashda kredit skoring modeli muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

"Kreditga layoqatlilik tahlilining skoring modeli" nomli takomillashtirilgan elektron dastur korxonalarning kreditga layoqatlilikini ikkita muhim jihat asosida 5 ta sinfga ajratib baholab beradi: 1. Moliyaviy ko'rsatkichlar (likvidlilik ko'rsatkichlari, balans likvidliliqi, aylanuvchanlik ko'rsatkichlari, samaradorlik ko'rsatkichlari, barqarorlik ko'rsatkichlari va Altman modeli) asosida baholash; 2. Nomoliyaviy ko'rsatkichlar (umumiy kredit tarixi, kredit ta'minoti, loyihaning realligi, tovarning raqobatbardoshlik darajasi, biznes obro'si) asosida baholash. Korxonaning kreditga layoqatliliga moliyaviy ko'rsatkichlar asosida 100 ball va nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida 100 ball umumiy 200 ball bilan baholanadi.

"Kreditga layoqatlilik tahlilining skoring modeli" elektron dasturi bo'yicha to'plangan jami ball 0 balldan 200 ballgacha oralig'da 5 ta sinfga bo'lib o'rganiladi. Quyidagi jadvalda sinflar bo'yicha to'liq tafsiloti berilgan(2-jadval)

2-jadval**Sinflar bo'yicha kredit ajratish tartibi**

| Sinf | Qisqacha izoh | Jami (ball) |
|---------------|--|------------------------|
| 1-sinf | Bu toifadagi korxonalar kredit to'lay olish qobiliyati yuqori. Ushbu korxonalarga kredit umumiy tartibda imtiyozli asosda berish mumkin. | 156-200 |
| 2-sinf | Bu toifadagi korxonalar kredit to'lay olish qobiliyatiga ega. Ushbu korxonalarga belgilangan tartibda kredit ajratish mumkin. | 120-155 |
| 3-sinf | Bu toifadagi korxonalar kredit to'lay olish qobiliyatiga ega emas. Ayrim holatlarda ushbu korxonalarga yuqori foizli stavkalarda kredit ajratish mumkin. | 82-119 |
| 4-sinf | Korxonaning moliyaviy holati barqaror emas. Bu toifadagi korxonalarda kredit riski juda yuqori hisoblanadi. | 81 gacha |
| 5-sinf | Ushbu toifadagi korxonalarga kredit berilmaydi. | 0 |

"Kreditga layoqatlilik tahlilining skoring modeli" quyidagi afzalliklarga ega:

Ushbu model korxonaning kreditga layoqatliliga aniq, to'liq, keng qamrovli baholash imkoniyatiga ega.

Amaldagi baholashdan farqli ravishda kreditga layoqatlilik holati 5 ta sinf asosida amalga oshiriladi. Bu banklar tomonidan korxonalarni kreditga layoqatlilik holati bo'yicha tanlash imkoniyatini oshiradi.

Kreditga layoqatlilikni baholash mezon(kriteriy)larini hisoblash usullari takomillashtirildi, ya'ni aniqlikni ta'minlash darajasi oshirildi.


Xalqaro tajribalar e'tiborga olingan holda yaratildi(3-jadval).

3-jadval**Amaldagi tartibning qiyosiy tahlili**

| Amaldagi tartibda | | Takomillashtirilgan tartibda | |
|--------------------------|--|-------------------------------------|---|
| Sinf | Kredit ajratish sharti | Sinf | Kredit ajratish sharti |
| 1-sinf | Kredit ajratiladi | 1-sinf | Kredit imtiyozli asosda berish mumkin |
| 2-sinf | Kredit alohida hollarda ajratilishi mumkin | 2-sinf | Kredit umumiy tartibda ajratiladi |
| 3-sinf | Kredit ajratilmaydi | 3-sinf | Kredit alohida hollarda yuqori foizli stavkalarda ajratish mumkin |
| | | 4-sinf | Kredit riski juda yuqori |
| | | 5- | Kredit ajratilmaydi |

Bizga ma'lumki, xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi va "Fitch Ratings" agentligi tomonidan o'zaro hamkorlik asosida O'zbekistonning kredit bozori to'g'risida xolis taqdimotni yaratish amaliyoti boshlanishi ta'kidlandi. Bu kreditga layoqatlilikni mustaqil va istiqbolli baholashni ta'minlaydi hamda investitsiya to'g'risida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida respublikamiz iqtisodiyotining barcha sohalarida tezkor axborotlarga bo'lgan talabning yuqori sur'atlarda o'sishi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda axborot almashinuvini tezlashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Jumladan, bank sohasida ham kredit munosabatlarini tartibga solishda axborot ta'minotini to'g'ri shakllantirish va soddalashtirishga e'tibor qaratilishi muhim hisoblanadi.

Korxonalarda yil davomida moliyaviy mablag'ga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keladi. Bu ehtiyojlar asosan bank kreditlari hisobiga qoplanib kelinmoqda. Bunda korxonalar oldida turgan katta muammo kredit hujjalarning ko'pligi va bosqichma-bosqich qabul qilinishi ortiqcha vaqt sarflanishiga olib kelmoqda. Bunday muammolar kredit jalb qilish jarayonida qiyinchilikni keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashda axborot ta'minotini soddalashtirish va axborot almashinuvini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tezlashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi(1-rasm).



1-rasm. Kreditga layoqatlilik tahlilining asosiy tartib-qoidalari.

Kreditga layoqatlilik tahlilining axborot ta'minotini takomillashtirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

- kreditga layoqatlilikni baholashda taqdim etiladigan axborot manbalari ishonchliligi ta'minlanishi;
- kredit olish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni unifikatsiyalashtirish va soddallashtirish;
- axborot almashinuvini tezlashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilishi.

Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashda axborot almashinuvini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tezlashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashda axborot ta'minotini shakllantirishda ishonchli axborotlarni ajratib olish zaruriyati yuzaga keladi. Korxona faoliyatini tahlil qilish jarayonida juda ko'p axborotlarga duch kelinadi. Bunda eng katta muammo axborotlar ichidan zarur va ishonchlilarini ajratib olishdir. Korxona faoliyatidagi

mavjud axborotlarga talablar qo'yiladi, ya'ni shu talablarga javob beradigan axborotlar eng zarur axborot hisoblanadi va iqtisodiy samarasi ham yuqori bo'ladi.

Tahlil jarayonida foydalaniladigan axborotlar quyidagi talablarga mos kelishi yetarli deb hisoblaymiz:

- axborotlarning uzluksiz bo'lishi;
- axborotlarning ishonchli bo'lishi;
- axborotlarning qiyoslanuvchan bo'lishi.

Axborotlarning uzluksiz, ishonchli va qiyoslanuvchan bo'lishi tahlilning samaradorligi va natijada baholashning aniqlik darajasini oshirib beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxonalarining kreditga layoqatliligi

tahlilining axborot ta'minotini ishlab chiqishda kreditga layoqatlilik tahlili tartib qoidalariga amal qilish zarur deb hisoblaymiz.

Kreditga layoqatlilik tahlilining asosiy tartib-qoidalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida kreditga layoqatlilikni baholash amalga oshirilmoqda. Demak axborot ta'minoti korxonaning moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni to'liq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Kreditga layoqatlilik tahlilining tartib-qoidalaridan kelib chiqib,

korxonalarining kreditga layoqatliligi tahlilining axborot ta'minotini quyidagicha shakllantirish zarur:

- 1.Korxona tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar
 - a) yuridik hujjatlar;
 - b) moliyaviy hisobot ma'lumotlari;
 - v) biznes reja ma'lumotlari(olingan kredit yuzasidan);
 - g) qisqa va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi(korxona faoliyati yuzasidan);
2. Bank tomonidan to'planadigan ma'lumotlar
 - a) mijozning kredit tarixi;
 - b) korxonaning biznes obro'si;
 - v) loyihaning realligi;
 - g) korxona faoliyati bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar.

Banklar tomonidan korxonalar taqdim etgan axborotlarga qarab korxonalarining kreditga layoqatliligin tahlil qilib, kreditni o'z vaqtida va to'la qaytara olish qobiliyatini baholaydi. Hozirgi kunda banklar oldida turgan eng katta muammolardan biri korxonalar tomonidan taqdim etilayotgan axborotlarning ishonchsizligidir.

Amaliyotda korxonalar taqdim etadigan axborotlarni noto'g'ri ko'rsatish holatlari, ya'ni kreditga layoqatli bo'lish uchun sun'iy ravishda oshirish yoki kamaytirish holatlari uchrab turadi. Bunday holatlarning uchrab turishi korxonalarining kreditga layoqatliligin to'g'ri va aniq baholash imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun ham korxonalarining kreditga layoqatliligi tahlili kredit qaytmaslik riskini pasaytiruvchi omil sifatida qaralmayapti yoki oxirgi o'rinda turibdi.

Bank va korxona o'rtasidagi kredit munosabatlarida amaliyotda yuzaga kelayotgan eng muhim muammoli jihatlardan biri kredit ajratishga uzoq vaqt talab qilinishidir. Buning asosiy sababi kredit hujjatlari dastlab tumanda keyin viloyat yoki shaharda va oxirida respublikada ko'rib chiqilishidadir. Barcha bosqichda har hil talablarning quylishi, ya'ni turli xil hujjatlar so'ralayotganligi kredit ajratish jarayoniga uzoq vaqt talab qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bank muassasalari uchun korxona axborotlari ishonchliligi va axborot almashinuvini tezlashtirishni ta'minlash muhim va dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Korxonalar tomonidan taqdim etiladigan axborotlarning ishonchliligi va axborot almashinuvini tezlashtirishni ta'minlash maqsadida "Davlat yagona interaktiv axborot bazasi" nomli elektron dastur yaratilgan bo'lib, uning ishlash tartibi www.my.gov.uz, www.my.soliq.uz saytlarga o'xshash amalga oshiriladi.

Korxona va bank o'rtasidagi elektron axborot almashinuvini ta'minlab beruvchi "Davlat yagona interaktiv axborot bazasi" nomli dastur quyidagi imkoniyatlarga ega:

- bugungi davr talabidan kelib chiqib, korxonalarning kreditga layoqatlilagini tahlil qilish uchun taqdim etiladigan kredit hujjatlarini unifikatsiyalaydi va soddallashtiradi;
- kredit olish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni ishonchlilagini ta'minlab beradi;
- korxona va bank o'rtasida elektron axborot almashinuvini amalga oshiradi;
- axborot almashinuvini tezlashtirish hisobiga kredit olishni osonlashtiradi.

Korxonalar tomonidan Davlat yagona interaktiv axborot bazasiga talab etiladigan ma'lumotlar noto'g'ri ma'lumot kiritilganda jarima belgilanishiga rozilik bildirgan holatda kiritiladi va banklar bu ma'lumotlardan foydalanib korxonalarning kreditga layoqatliligiga baho beradi. Korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlilida foydalanayotgan axborotlarni ishonchlilagini ta'minlash maqsadida korxonalar faoliyati qisqa muddatli o'rghanish amalga oshiriladi. Qisqa muddatli o'rghanish ikki xil usulda tashkil etilishi mumkin:

1. Korxonalar amaliyotida uzoq yillik tajribaga ega buxgalterlarni jalb qilib, bankda yangi bo'lim joriy etish asosida;

2. Auditorlik tashkilotlari bilan shartnoma imzolash asosida.

Korxona faoliyati qisqa muddatli o'rghanish natijasida axborotlar noto'g'ri taqdim etilgan holatlar aniqlanganda jarima belgilanadi (so'ralayotgan kredit summasidan 10-15% gacha). Korxonalar tomonidan noto'g'ri axborotlar taqdim etilgan holatning uchrashi faqat jarima belgilash emas, qayta takroran noto'g'ri ma'lumot taqdim etilganda umuman kredit ajratilmaslik sharti qo'yiladi. Bunday qat'iy talab qo'yilishi korxona tomonidan noto'g'ri axborot taqdim etmaslikka olib keladi.

Davlat yagona interaktiv axborot bazasi: qonuniylik; ochiqlik; xolislik; ishtirokchilar ning teng huquqliligi kabi tamoyillarga amal qiladi.

Ushbu baza qonuniy asosda tashkil etiladi, axborotlar ochiq bo'ladi, ya'ni foydalanuvchilar uchun. Xolislik tamoyiliga rioya qiladi, bunda shaxs aralashuvi bo'lmaydi

hamma jarayon kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Barcha ishtirokchilar ma'lumot kiritishda teng huquqga ega bo'ladi.

Davlat yagona interaktiv axborot bazasining ishlash tartibi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Dastlab ma'lumot kiritilishidan oldin noto'g'ri ma'lumot kiritilganda jarima belgilanishiga rozilik bildirishni korxona o'ziga tegishli elektron raqamli imzo orqali tasdiqlaydi(jarima summasi so'ralayotgan kredit summasidan 10-15% dastlab noto'g'ri ma'lumot taqdim etilganligi aniqlangandan keyin yana noto'g'ri ma'lumot taqdim etilish holati yana o'chrasa jarima ikki barobarga oshiriladi va umuman kredit ajratmaslik masalasi ko'rib chiqiladi).

2-bosqich. Ma'lumotlarni kiritish. Bunda korxonalar o'ziga tegishli bo'limga kichik korxona yoki korxonaga tegishli ma'lumotlarni kiritadi.

a) Kichik korxonalar tomonidan kiritiladigan ma'lumotlar:

- korxona faoliyatini tartibga solib turuvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar (nizom, ta'sis shartnomasi, guvohnoma, litsenziya(talab qilingan korxonalar uchun) va h.k)
- buxgalteriya balansi 1-sonli shakl;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot 2-sonli shakl;
- biznes-reja ma'lumotlari;
- kamida uch yillik rivojlanish strategiyasi;
- boshqa qo'shimcha ma'lumotlar.

b) Korxonalar tomonidan kiritiladigan ma'lumotlar:

- korxona faoliyatini tartibga solib turuvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar (nizom, ta'sis shartnomasi, guvoxnama, litsenziya(talab qilingan korxonalar uchun) va h.k)
- buxgalteriya balansi 1-sonli shakl;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot 2-sonli shakl;
- pul oqimlari to'g'risidagi hisobot 4-sonli shakl;
- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot 5-shakl;
- biznes-reja ma'lumotlari;
- kamida besh yillik rivojlanish strategiyasi;
- boshqa qo'shimcha ma'lumotlar.

3-bosqich. Ma'lumotlarni jo'natish. Korxona tomonidan ma'lumotlar to'liq va to'g'ri kiritganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng jo'natish tugmasini bosish orqali ma'lumotlarni jo'natadi.

4-bosqich. Korxona tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'ri kiritilganligini tekshirib bazaga qabul qilish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish vazifasi turadi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi bevosita axborot almashinuvining tezlashishi bilan bog'liqidir. Iqtisodiyotimizning muhim sohalaridan biri bank tizimida axborot almashinuvining tezlashishi o'z navbatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror rivojlanishiga olib keladi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenining "Bank xizmatari ommabopligrini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 23 martdagi qarori.
2. Ионова А.Ф., Селезнева Н.Н. Финансовый анализ: учеб.-М.:ТК Вебли, Изд-во Проспект,2006.-624 с.
3. Ендовицкий Д. А., Бахтин К. В., Ковтун Д. В. Анализ кредитоспособности организаций и группы компаний : учебное пособие.- М. : КНОРУС, 2016. 376 с.
4. Наумченкова Ю. В. Оценка кредитоспособности заемщика. Теория и практика современной науки. 2016. № 5. с.5
5. Лиференко Г.Н. Финансовый анализ предприятия: Учеб.пособие.-М.: Экзамен, 2005. с. 160
6. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik.-T.: Iqtisod-Moliya. 2017. 732 b.
7. Azizov U.O' va boshqalar. Bank ishi.-T.: Fan va texnologiya, 2016. 640 b.
8. Raximov M.Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili.O'quv qo'llanma.-T.: Iqtisod-Moliya, 2015. 392 6.
9. Mamatov B.SH., Qulliyev I.Y., Pulatova M.B. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliliginib baholash amaliyotini takomillashtirish. Monografiya.-T.:Extremum-press, 2016. 112 b.